



МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ ТИЗИМИДАГИ ПЕДАГОГЛАР КАСБИY КОМПЕТЕНТЛIGI VA BOLALARNI MAKTAB TA'LIMIGA SIFATLI TAYYORLASH- DAVR TALABI

Mirsharafova Shaxinabegim Saidabbos Qizi – Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi yo'nalishi 201-guruh talabasi

Qo'ziyeva Zuxra Alijon Qizi - Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi yo'nalishi 201-guruh talabasi

Allabergenova Mardona O'tkirkbek Qizi - Nizomiy nomidagi TDPU Maktabgacha ta'lim pedagogikasi va psixologiyasi yo'nalishi 201-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tizimidagi pedagoglar kasbiy kompetentligi va bolalarni mifikta ta'limga sifatli tayyorlashning hozirgi kundagi o'rni va naqadar dolzarbliги haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, ta'lim va tarbiya, kompetensiya, tarbiyachi, tarbiyalanuvchi, o'yin kompitensiysi, ijtimoiy kompitensiya.

Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo'lgan, ahloqiy me'yor va qadriyatlarni o'zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, unda "men"obrazini qurish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyoragarlikni ko'zda tutadi.

Boshlang'ich muhim kompetensiyalar bolaning faoliyat va ahloq subyekti sifatida yaxlit rivojlanishini talab etadi. Ijtimoiy-tarixiy tajribani o'zlashtirish faoliy jarayonida yuz beradi. Faollik bolaga hos xususiyatdir. Tarbiya jarayonidagi faollik asosida faoliyatning har xir turlari shakllanadi. Ulardan asosiyları: munosabatda bo'lish faoliyati, bilish, buyumlar bilan bo'ladigan faoliyat, o'yin, oddiy mehnat va o'quv faoliyatlaridir. Ta'lim-tarbiya orqali amalga oshiriladigan faoliyatlarni maktabgacha yoshdagi bolalar birdaniga o'zlashtirib olmaydilar, aksincha ularni tarbiyachi rahbarligida sekin-asta egallab boradilar.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirishda o'ziga xos metodik, pedagogik, psixologik tayyorgarlik bilan ishslash davr taqazosiga aylandi. Chunki maktabgacha ta'lim mazmunini takomillashtirish keng ma'noli tushuncha bo'lib, uni samarali amalga oshirish maktabgacha ta'lim tashkiloti binosining holati, tarbiyachi-pedagoglar, tarbiyachi yordamchilari, ota-onalar hamda bolalarning ta'lim jarayonidagi ishtirotki innovatsion bo'lishi lozimligini talab



etadi. “Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” hamda “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi asosida kompetensiyaviy yondashuv jarayonida pedagogik-psixologik, metodik, badiiy adabiyotlar soni va sifati, har bir yosh guruhiga mos va xos adabiyotlar bilan boyitib borish ham muhim masaladir. Bolalarni o‘ynab turib o‘ylashga undovchi muammoli vaziyatlarni o‘yinlarda aks ettiruvchi ta’limiy rivojlantiruvchi o‘yin markazlari tashkil etish va ular faoliyatini muvofiqlashtirishda ota-onalar va jamoatchilikning jalg qilinishi va boshqa shu kabi omillar maktabgacha ta’lim mazmunini oshiradi.

Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning umumiyy muhim kompetensiyalari:

Kommunikativ kompetensiya – muloqot vositalaridan turli vaziyatlarda foydalana bilish ko‘nikmasi.

O‘yin kompetensiyasi – bolaning o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanishi. O‘quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

Ijtimoiy kompetensiya – hayotiy vaziyatlarda kattalar va tengdoshlar bilan muloqotda axloq qoidalari va me’yorlariga rioya qilgan holda o‘zini tuta olish mahorati.

Bilish kompetensiyasi – atrofdagi olamni ongli ravishda idrok qilish va olingan bilim, ko‘nikma, malaka va qadriyatlardan o‘quv va amaliy vazifalarni hal qilish uchun foydalanish.

Bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari

Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish

Maktabgacha ta’limning sifat va samaradorligiga erishishda tarbiyalanuvchilarning kundalik faoliyatini mazmunli va qiziqarli tashkil etish, bo‘sh vaqtlardan unumli foydalanish, qobiliyatlarini aniqlash va shunga qarab jarayonga ijodiy yondashish, bolalar uchun o‘tkazilgan mashg‘ulotlar va manbalarni bolalar va jamiyat ehtiyojlariga javob beradigan holatga keltirish maqsadida ratsional va tizimli tahlil qilishni ko‘zda tutadi. Buning uchun innovatsion usullardan biri bo‘lgan “Keys-stadi” texnalogiyasidan maktabgacha ta’lim tashkilotida ham foydalanish bolalarni faol ta’lim olishga undaydi. Bu usulni qo‘llash orqali



tarbiyachi bolani berilgan savolga to‘g‘ri javob berishga o‘rgatadi. Tarbiyalanuvchilarga ko‘proq kitob o‘qib berish yoki kitob sovg‘a qilish ularni so‘z boyligini oshirish bilan bir qatorda xotirasi va tafakkurini o‘stiradi. Tarbiyachilar vazifasi tarbiyalanuvchilar uchun qiziqarli bo‘lgan va ularning ijodiga keng erkinlik beradigan ta’lim imkoniyatlarini ta’minlashdan iborat bo‘lib qoladi.

Bolaning har tomonlama rivojlanishini ta’minlash uchun maktabgacha ta’lim tashkilotining ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikdagi ishlari ham muhim sanaladi.

Bunda:

- ota-onalarning maktabgacha ta’lim tashkiloti borasidagi fikrlarini hisobga olish;
- ilk rivojlanish masalalarida ota-onalarga bilim berish;
- ota-onalarni o‘quv-tarbiyaviy jarayonda faol qatnashishga jalg etish;
- ota-onalarning tashkilot hayotida ishtirok etish borasidagi tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashdan iborat

Maktabgacha ta’lim tashkilotining oila bilan ishslash tizimida aniq maqsad mazmun bo‘lishi kerak. Ota-onalar bilan hamkorlik borasida avvalo erishilgan yutuq va tajribalarning natijalarini tahlil qilib, bolaning ijobjiy tomonlarini ko‘rsatib, keyin asta-sekinlik bilan ularning xulq-atvoridagi salbiy holatlarni bartaraf etishga, tevarak-atrofga qiziqishlarini oshirib borishga astoydil harakat qilish lozimligini uqtirish lozim. Xo‘sish, maktabgacha ta’lim yoshidagi bolaning tayyorgarligi qanday bo‘lishi kerak? degan muhim savol yuzaga keladi.

Bolalarni maktabga muvoffaqiyatli o‘qishi uchun ularni fanlar bo‘yicha mazmunli tayyorgarligi muhim emas. Chunki uni haddan ziyod yuklatish o‘qishga bo‘lgan xohishni susayishiga olib keladi. Asosiysi, uni psixologik jihatdan maktabga tayyorgarligi, bilishga qiziqishi, o‘zini nazorat qila olish malakalarini, kommunikativ va ijodiy qobiliyatlarini, nutqini, xotirasini, diqqatini, tafakkurini rivojlanishining ma’lum darajasini shakllantirishdir.

Ko‘rib turibmizki, bolalarni maktabga tayyorlash katta yoki tayyorlov guruhlarida emas, balki bolaning maktabgacha ta’lim tashkilotiga kelgan kunidanoq boshlanishi lozim. Agar aniqroq aytadigan bo‘lsak, uni oldinroq ham boshlash mumkin. Chunki bolaning diqqati, qiziquvchan va ba’zi bir topshiriqlarni mustaqil qilishi qiyin bo‘lganidek, uni qisqa muddat ichida birgalikda qandaydir vazifalarni yechishga kelishishga o‘rgatish ham mushkul bir vazifadir. Bu borada, maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining savodxonligi muhim sanaladi.

Shuni ta’kidlash lozimki tarbiyachi rivojlanmasa, maktabgacha ta’lim rivojlanmaydi. Tarbiyachining rivojlanishi esa, o‘z ustida tinimsiz izlanishi, ta’lim-



tarbiyani uyg‘unlashtirgan holda yangiliklar yarata olish, xalq pedagogikasini chuqr bilishi bilan xorij tajribasi yangiliklarini o‘zlashtirib, o‘z faoliyatini boyitib borishi va ularni amaliyotda qo‘llay olishi bilan ahamiyatlidir. Maktabgacha ta’lim boshlang‘ich ta’limning poydevori sanaladi. Poydevor mustahkam bo‘lsa imorat uzoq yillar qad ko‘tarib turadi. Shunday ekan kelajagimiz davomchisi bo‘lgan yosh avlodga har tomonlama komil inson qilib, ta’lim- tarbiya berish bugungi kun pedagogining oldida turgan dolzarb vazifalardan biri ekanligini anglamog‘imiz zarur.

Maktabgacha ta’lim tizimidagi pedagog-tarbiyachilarning kasbiy mahoratini muntazam rivojlantirib borish bugungi kunda muhim vazifalarimizdan bir ekanligini chuqr his qilmoqdamiz. Birgina maktabgacha yoshdagi bolalarni maktab ta’limiga sifatli tayyorlash ishlari xususan ularning mакtabda muvaffaqiyatli o‘qishlarida pedagog-tarbiyachilarning o‘rni beqiyosdir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi 802-son “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida” gi qaroriga muvofiq, jismoniy, ma’naviy va intellektual jihatdan maktabda sifatli o‘qishga tayyorlashni nazarda tutadi. Maktabgacha ta’limdagi bunday muhim vazifalarni amalga oshirishda tarbiyachi-pedagoglik kasbi ayniqsa, alohida ahamiyatga ega. O‘zi o‘qiydigan, doimo bilimini oshirib boradigan kishi o‘qituvchidir, degan qoida tarbiyachiga ham bevosita taalluqlidir. Doimo o‘zini tarbiyalash bilan, tarbiya ilmi va san’atini egallah bilan shug‘ullanadigan tarbiyachigina haqiqiy tarbiyachi bo‘la oladi. Bu borada ulug‘ allomalardan biri “bolani tarbiyalash tarbiyachining o‘z-o‘zini takomillashtirishidan boshqa narsa emas”, degan edi. Tarbiyachi yosh avlodni xalqimizning munosib farzandlari qilib tarbiyalashdek muhim, faxrli va shu bilan birga ma’suliyatli vazifalarni bajaradi.

Bola shaxsini shakllantirishda tarbiyachi shaxsi alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, har bir bolaning shaxs sifatida shakllanishida mas’ul ekanligini taqozo etadi. Shunga ko‘ra tarbiyachi bolalarga kundalik hayotda, o‘yinlarda, ta’limiy faoliyatlarda, birgalikdagi mehnat faoliyatida, ular bilan bo‘ladigan muomalada, muloqotda ibrat, namuna bo‘lishi bolani har tomonlama diqqat bilan o‘rganishi, uning shaxsiy xususiyatlarini, qobiliyatlarini bilishi, pedagogik nazokatini namoyon qilishi, bolalarning xulq-atvori ish natijalarini haqqoniy rag‘batlantirishi va ularga o‘z vaqtida yordam ko‘rsata olishi hamda oilaviy ahvoli bilan qiziqishi zarurdir.

Tarbiyachining siyosiy yetukligi bolalarni tarbiyalash sifati uchun xalq va jamiyat oldidagi o‘z ma’suliyatini anglashga, ta’lim-tarbiya vazifalarini hal etishga ijodiy yondashishga, o‘z mahoratini doimo takomillashtirib borishga yordam



beradi. Demak, tarbiyachi avvalo, bilimli bo‘lishi, tabiat va jamiyatning qonuniyatlarini tushunishi, umumiyligi va maktabgacha pedagogikani, bolalar ruhiyatini va fiziologiyasini hamda ularning yosh xususiyatlarini bilishi kerak. Shuningdek, pedagogik tarbiyachining hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi.

- Bolaga kompetensiyaviy yondashuv;
- Bolaga erkinlik berish;
- Vatanga muhabbat, vatanparvarlik ruhini singdirish;
- Bola shaxsini, ularda o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshirish;
- Bola shaxsiyatiga tegmaslik, qo‘rquv hissini yo‘qotish;
- Bolalarni amaliy jarayonga olib kirish.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ta’lim-tarbiyasiga, ularning shaxsiga do‘stona yondoshish tarbiyachi uchun kasbiy mahoratni talab etadi va bolalarda tarbiyachiga nisbatan ijobjiy fikr uyg‘otadi. Tarbiyachi bolalarning xarakteridan kelib chiqqan holda ta’limiy faoliyat davomida tashkilotchilik qobiliyatini rivojlantiradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, tarbiyachi yuksak darajadagi pedagogik mahoratga, kommunikativlik layoqatiga ega bo‘lish, zamonaviy, chuqur nazariy va amaliy bilimlarga ega bo‘lishi lozim. Tarbiyachi bolalarni kuzata oladigan, ularni hulqi, hatti-harakati sabablarini to‘g‘ri tahlil qilib, unga ta’sir etuvchi vositalarni qo‘llay oladigan bo‘lishi kerak. Eng muhimmi, tarbiyachi bolalarni maktab ta’limida muvaffaqiyatli o‘qishga sifatli tayyorlash mas’uliyatini his etib turishi darkor.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. P.Yusupova. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. O‘quv qo‘llanma — T.: «O‘qituvchi». 2002.
2. N.N.Djamilova. Maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyachilarida tashkilotchilik sifatlarini shakllantirish. T-2008.
3. Maktabgacha yoshdagi bolalar ilk rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari.
4. Bakhodirovna, K. D. (2022). Management of the Plot-Role-Playing Games of Preschool Children in the Conditions of Pre-School Education. Spanish Journal of Society and Sustainability, 3, 9-11.
5. Касимова, Д. Б. (2022, November). СОВРЕМЕННЫЙ ПОДХОД И НОВЕЙШИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ТРЕБОВАНИЯ К СЮЖЕТНО-РОЛЕВЫМ ИГРАМ ДОШКОЛЬНИКОВ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC



AND PRACTICAL CONFERENCE" THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS" (Vol. 1, No. 3, pp. 108-112).

6. Касимова, Д. Б. (2022). СПЕЦИФИЧЕСКИЕ МОТИВЫ, ПРИСУЩИЕ СЮЖЕТНО-РОЛЕВЫМ ИГРАМ ДОШКОЛЬНИКОВ. Results of National Scientific Research International Journal, 1(6), 239-243.\

7. Kasimova, D. B. (2023). THE SIGNIFICANCE OF BIOLOGICAL AND SOCIAL FACTORS IN THE SOCIALIZATION OF PRESCHOOL CHILDREN. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(3), 69-74.

8. Касимова, Д. Б., & Эргашева, Д. (2023, October). ИНТЕРАКТИВНЫЕ ИГРЫ В ДОШКОЛЬНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 2, No. 8, pp. 40-45).

9. Kasimova, D. B., & qizi To‘ychiyeva, S. R. (2023, January). MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIDA FAOLIYAT KO ‘RSATADIGAN PEDAGOGNING KASBIY INNOVATSION YONDASHUVI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 2, pp. 417-420).

10. Касимова, Д. (2022). МАКТАБГАЧА ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИДА БОЛАЛАР БИЛАН ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДА ИНТЕРФАОЛ УСЛУБЛАР ВА ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИ ҚЎЛЛАШ УСЛУБИЯТИ. Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования, 1(24), 88-90.

11. Касимова, Д. Б., & Эргашева, Д. (2023, October). ИНТЕРАКТИВНЫЕ ИГРЫ В ДОШКОЛЬНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ОРГАНИЗАЦИЯХ. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION" (Vol. 2, No. 8, pp. 40-45).

12. Kasimova, D. B. (2023). THE SIGNIFICANCE OF BIOLOGICAL AND SOCIAL FACTORS IN THE SOCIALIZATION OF PRESCHOOL CHILDREN. Analysis of world scientific views International Scientific Journal, 1(3), 69-74.

13. Kasimova, D. B. (2023, September). COOPERATION OF FAMILIES AND PEDAGOGUES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE" SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES" (Vol. 1, No. 3, pp. 58-62).